

## **BIOLOGIK RESURSLARNI OLIB KIRISH VA OLIB CHIQISHNING XALQARO HUQUQIY TARTIBI: MILLIY VA XORIJIIY TAJRIBA**

*Alfraganus universiteti  
Stomatologiya fakulteti talabalari*

*Berdiyeva Shaxnoz*

*Yo'ldosheva Madina*

*Sotiboldiyev Ozodbek*

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada bugungi kunda barchani qiziqtiradigan biologik resurslarni olib kirish va olib chiqishning xalqaro huquqiy tartibi bo'yicha milliy va xorijiy tajribani o'rGANAMIZ. Biologik resurslarni olib kirish va olib chiqishning xalqaro huquqiy jihatni va uning boshqa mamalakatlarda amal qilishning xorijiy va miliy tajribasi bo'yicha O'zbekistonning holatini o'rGANISH va O'zbekistondagi olib kirish va olib chiqishning qonuniy bazasi, huquqiy muddati, litsenziyalash va boshqa muammolari keltirilgan. Biologik resurslar bilan bog'liq huquqiy muammolar va ularidan foydalanishni tartibga solishda milliy va xorijiy tajribani qanday ko'rsatilishi kerakligi haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *biologik resurslar, xalqaro huquqiy tartib, eksport, import, milliy tajriba, xorijiy tajriba, huquqiy asos, davlat va xalqaro tashkilotlar, biologik resurslarni boshqarish, huquqiy muammolar, konvensiya.*

### **KIRISH**

Biologik resurslar yani hayvonlar, o'simliklar va boshqa tabiiy boyliklar, inson faoliyatning asosiy qismidir va ularni erkin olib kirish va olib chiqish muammo bo'lib kelgan. Bu, xalqaro huquqiy tartibning muhim bir qismidir, va uni tuzatishda milliy va xorijiy tajribalar katta ahamiyatga ega. Ularni erkin kirish va foydalanishga ruxsat berish huquqi, har bir davlatning milliy qonunlarida aniqlanadi. Har bir mamlakat o'z hududidagi biologik resurslarni olib kirish va ularidan foydalanishda o'z milliy xususiyatlari asosida huquqiy tartibni belgilaydi. Biologik resurslarni himoya qilish juda muhim fundamental ahamiyat kasb etadi.

Chunki, so'nggi yillarda huquqiy muhofaza yetishmasligi sababli ko'plab o'simliklar va hayvonot dunyosi yo'q bo'lib ketmoqda.

#### **Biologik resurslar o'zi nima?**

**Bioresources**-“Yerning hayoti”. Ko'p hujayrali organizmlardan iborat bo'lgan barcha tirik mavjudotlar biologik resurslardir.

**1. Zoomassu-** hayvon turlari to'plami

**2. Fitomas** ( o'simlik va yog'och resurslari to'plami)

Biologik resurslar o‘z navbatida 2 turga bo‘linadi:

### 1. tugaydigan

a qayta tiklanadigan resurslar.

Tabiiy resurslar orasida biologik resurslar alohida ahamiyatga ega, chunki ular tugallanmaydigan bo‘lib, tugasa ham qayta tiklanadigan resurslar hisoblanadi. Dunyoning biologik resurslari insoniyatning ta‘siri ostida yil sayin o‘ziga xos ko‘rinishini yoqotadi. Biologik resurslarni olib kirish va ulardan foydalanishning xalqaro huquqiy tartibini milliy va xorijiy tajribalar asosida o‘rganib chiqadi. Bu tartib, tabiiy boyliklarni himoya qilish, ulardan samarali foydalanish va ekologik muhitni saqlashga xizmat qiladi. Biologik resurslar olib kirish va olib chiqishning dolzarbliklari va muammolari, tabiiy resurslar va ekologik sistemlar bilan bog‘liq muhim muddatli masalalardir. Bu muammolar quyidagilardani o‘z ichiga oladi:

1.Ishlab chiqarishning o‘zgarishi: Biologik resurslarni olib chiqish va olib kirish, tabiiy ekologik tizimlardagi o‘zgarishlarni keltirishimiz mumkin. Misol uchun, hayvonlar urug‘larini olib tashlash, bitkilarni yiriklantirish, suv resurslarini quvvatlash, ekosistemalardagi harakatlanishlarni o‘zartirish kabi o‘zgarishlardir. Bu esa o‘z navbatida tabiiy biologik tizimlarning tuzilish va faoliyati bo‘yicha muammo yaratadi.

2.O‘zaro bog‘liqlilik: Biologik resurslarni olib chiqarish va olib kirishning global oqibatlari ham mavjud. Bitta biologik resurs o‘zgarishlari bir-biriga o‘xshash tizimlarga olib kelishi mumkin. Masalan, bir nechta turlarning yo‘qolishi, ularga bog‘liq hayvon va bitkilarning yo‘qolishi hamda ularga bog‘liq ekosistemalarning yo‘qolishi bilan bog‘liw muammo yuzaga kela oladi.

Bu muammolar ekologik muammo bo‘lib, ularni bartaraf etish va biologik resurslarni olib chiqarish va olib kirishning ekologik ravishda qo‘llanishini ta‘minlash uchun ehtiyyotkorlikni bog‘lash va tabiiy resurslarni muhofaza qilishning muhimi bo‘lgan qoidalarga amal qilish zarur. Ekologik tahlil, monitoring va qonunlar, resurslarni qo‘llash va muhofaza qilishda katta ahamiyatga ega.

Biologik resurslarni olib chiqarish va olib kirishning ekologik ravishda qo‘llanishini ta‘minlash uchun quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

Qonun va nizomlar: Muhimdirki, biologik resurslarni olib chiqarish va olib kirish faoliyati davomida davlat tomonidan belgilangan qonunlar, nizomlar va tartibotlarga amal qilish kerak. Bu qonunlar olib chiqarishning miqdorini, qaror qilingan obro‘sini, olib chiqarishning yo‘nalishlarini va boshqa muhim masalalarni bellgilaydi.

Ehtiyyotkorlikli bog‘lash: Biologik resurslarni olib chiqarish va olib kirishning ehtiyyotkorlikli bo‘lishi uchun resurslarni qo‘llash va boshqarishning ehtiyyotkorlik prinsiplariga amal qilish zarur. Bu masala shu jumladan, olib chiqarishni tartibga solish, resurslarni miqdorini va qo‘llanishini nazorat qilish, qo‘llashning

ehtiyyotkorlikli usullarini qo'llash kabi muhim masalalar umumiy ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

**Ekologik tahlil va monitoring:** Muayyan davlat va muassasalar ekologik tahlil va monitoring jaroyonlarini amalga oshirish orqali biologik resurslarni olib chiqarish va olib kirishning ekologik ta'sirini o'rghanishga va nazorat qilishga intilishadi. Bu jarayonlar o'z ichiga biologik resurslarni miqdorini, o'zgarishlarishlarini, ekosisremlar bilan aloqasini va boshqa muhim ma'lumotlarni olishni o'z ichiga oladi. Resurslarni olib chiqarish va olib kirish muammolari hali ham ko'p kishi uchun noaniq bo'lishi mumkin. Bu qoidalarga amal qilish, biologik resurslarni olib chiqarish va olib kirishning ekologik ravishda qo'llanilishini ta'minlashga yordam beradi va tabiiy ekologik tizimlarni muhofaza qilishga imkon beradi.

### **ASOSIY QISM**

Biologik resurslarni olib chiqarish va olib kirish sohasida bir nechta olimlar, izlanuvchilar va ilmiy jamiyatlarga katta ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy ishlar olib borgan. ***Bu sohada eng mashhur olimlar quyidagilardir:***

**Aldo Leopold:** Aldo Leopold, biologik resurslarni olib chiqish va olib kirishning ekologik va etik aspektlari bo'yicha muhim ishlar bilan shug'ullanuvchi amerikalik olim va yozuvchidir. Uning "Tabiiy Hayotning Suv Saqlash Dasturi" (The Land Ethic) degan asari, biologik resurslarni olib chiqarish va olib kirish faoliyatini tabiiy hayotning barcha komponentlari bilan muvofiqlashtirishning muhimini ko'rsatadi.<sup>1</sup>

**Rachel Carson:** Rachel Carson, "Qora Oqibat" (Silent Spring) deb nomlangan asarida biologik resurslarni olib chiqish va kirishning ekologik ta'siriga oid muhim ma'lumotlar va ogohlantiruvlar taqdim etgan amerikalik olim va yozuvchisi. Uning asari tabiiy hayotga va insoniyatga olib kelgan kimyoviy moddalar bilan olib chiqarishning oqibatlarini ko'rsatadi.

Bundan tashqari shu sohani tartibga soladigan konvensiya va shartnomalar ham bor. Bular qatoriga **CITES konvensiyasini** ham misol qilib keltirishimiz mumkin. Bu konvensianing maqsadi yo'qolib ketish xavfi ostida turgan hayvonlar va o'simliklar namunalari bilan xalqaro savdo (import va eksport) yovvoyi tabiatda turlarning salanib qolishiga tahdid solmasligini ta'minlashdan iborat. Bunga ruxsatnomalar va sertifikatlar orqali erishiladi. CITES ruxsatnomalari va sertifikatlari har bir mamlakatda CITES tizimini boshqarish uchun ma'sul bo'lgan bir yoki bir nechta boshqaruv organlari tomonidan beriladi.

2005-yildan 2009-yilgacha qonuniy savdo quyidagi raqamlarga to'g'ri keladi:

317000 tirik qushlar

2 milliondan ortiq tirik sudralib yuruvchilar

2,5 million timsoh terisi

<sup>1</sup> [HTTPS://WWW.ALDOLEOPOLD.ORG/TEACH-AND-LEARN/LEARNING-HUB#REQUEST-RESOURCES](https://WWW.ALDOLEOPOLD.ORG/TEACH-AND-LEARN/LEARNING-HUB#REQUEST-RESOURCES)

2,1 million ilon terisi

73 tonna ikra

1,1 million qunduz terisi

Millionlab marjon boʻlaklari

20000sutemizuvchilar ov kubogi

1990-yillarda qonuniy hayvonot mahsulotlarining yillik savdosi 160 milliard dollorni tashkil etdi. 2009-yilga kelib taxminan qiymat deyari 2 baravarga oshib, 300 milliard dollorga yetdi.<sup>2</sup>

**International Union for Conservation of Nature (IUCN):** IUCN, biologik resurslarni olib chiqarish va olib kirishning qayta tiklash va muhofaza qilishga oid ilmiy ishlar bilan shugʻullanuvchi dunyoviy jamiyatdir. Ular tabiiy resurslarni kuchaytirish, biologik diversitetni saqlash, ekosistemlarni muhofaza qilish va boshqalar kabi muhim masalalarda ilmiy tadqiqotlar va koʻrsatmalar yuritishadi.

**Convention on Biological Diversity (CBD):** Biologik diversitetni saqlash va biologik resurslarni olib chiqarish va kirishning muhim masalalariga oid xalqaro tashkilot CBD ham ilmiy ishlar bilan shugʻullanadi. Ular biologik diversitetni saqlashga va biologik resurslarni olib chiqarish va olib kirishning qonuniy asoslari va tashkilotlari boʻyicha ilmiy ishlarni koʻrsatishga intilishadi. Bu katta olimlar, izlanuvchilar va ilmiy jamiyatlar biologik resurslarni olib chiqarish va olib kirish sohasidagi ilmiy ishlar bilan dunyonni yoritganlar.<sup>3</sup>

Biologik resurslarni olib kirish va olib chiqishning xalqaro huquqiy tartibi turli xalqaro shartnomalar va konvensiyalar, shuningdek, milliy qonunlar va qoidalar bilan tartibga solinadi. Biologik resurslar savdosini tartibga soluvchi asosiy xalqaro shartnomlardanir. Koʻpgina mamlakatlar biologik resurslarning importi va eksportini tartibga solish uchun milliy qonunlar va qoidalarni ham qabul qiladilar. Ushbu qonunlar koʻpincha biologik resurslarni toplash, foydalanish va sotish uchun ruxsat yoki litsenziyalarni talab qildi va mahalliy hamjamiyat va mahalliy xalqlar bilan foyda almashish qoidalari oʻz ichiga olishi mumkin. Umuman olganda, biologik resurslarni import qilish va eksport qilishning xalqaro huquqiy tartibi murakkab va rivojlanib bormoqda, bunda asosiy eʼtibor tabiatni muhofaza qilish, barqaror foydalanish va foydalarni teng taqsimlashga qaratilgan. Mamlakatlar biologik resurslar savdosi qonuniy va axloqiy ekanligini taʼminlash uchun xalqaro shartnomalar, milliy qonunlar va qoidalarni toplamida harakat qilishlari kerak. Dunyoq miqyosida biologik resurslarni masʼuliyatli boshqarishni taʼminlash uchun mamlakatlar oʻrtasidagi hamkorlik, qoidalarning bajarilishi va savdo amaliyotida shaffoflikni ragʼbatlantirish muhim ahamiyatga ega.

Bioxilma-xillik tushunchasi keng muomalaga **1972-yil BMT ning Atrofmuhit**

<sup>2</sup> CITES convention. <https://en.wikipedia.org/wiki/CITES>

**4 bo'yicha Stokholm konferensiyasida kiritilgan**. Bu konferensiyyada ekologlar bioxilma-xillikni o'rganish va saqlash bo'yicha o'z takliflarini bildirdilar va xalqaro dastur qabul qilindi. Bu dasturdan maqsad, tirik tabiat muhofazasi insonning yer yuzidagi har qanday faoliyatida 1-o'rinda qo'yilishi lozimligida edi. Bilogik xilma xillik tushunchasi xalqaro darajada e'tirof etilgandan so'ng, bir qancha xalqaro huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, **1975-yil yo'qolib ketish xavfi ostidagi Jahon florasi va faunasi turlari bilan xalqaro savdo qilish**

2. Convention on Biological Diversity.[https://en.wikipedia.org/wiki/Convention\\_on\\_Biological\\_Diversity](https://en.wikipedia.org/wiki/Convention_on_Biological_Diversity)

#### **4 STOKGOLM+50. 2022-YIL 4-IYUN.**

**HTTPS://HYDROMET.UZ/UZ/NODE/1940**

**5. konvensiyasi kuchga kirdi**. Konvensiya yo'qolib ketish xavfi ostidagi 20 ming turni savdosini ta'qilaydi va nazorat qiladi.

Bundan tashqari esa, 1980-yilda UNEP (*MDH ning atrof-muhitni himoya qilish to'g'risidagi dasturi*), IUCN (*Xalqaro tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish uyushmasi*) hamda WWP (*Butunjahon yovvoyi tabiat fondi*) tirik tabiatni muhofaza qilish Butunjahon strategiyasini e'lon qildi. **50 dan ortiq** mamlakat undan tirik organizmlar muhofazasining milliy strategiyasi ishlab chiqishda foydalandi. UNEP va IUCN Afrika va hind fili, karkidonlari, primatlar, mushuksimonlar va oq ayiqlarni muhofaza qilish bo'yicha hamkorlikdagi tadbirlar rejalarini ishlab chiqdilar. Xalqaro huquqiy hujjatarning qabul qilinishi bilogik resurslar bilan yuzaga keladigan muammolarning o'z yechimini topishiga imkon yaratdi. Shu boisdan, yana ko'plab biologik xilma xillikni tartibga solishga qaratilgan xalqaro huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

1983-yilda esa yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya kuchga kirdi. Maqsadi sayyoramizdag'i turlarning taqsimlanishi va ko'pligini belgilash hamda bioxilma-xilligini monitoring qilish sohasidagi mutaxassislarini tayyorlaydigan Butunjahon muhofaza va monitoring markazi tashkil qilindi. Ma'lumot o'rnida aytish kerakki, o'simliklar gen resurslari bo'yicha xalqaro kengash dunyoning 30 ta mamlakatida 40 ta asosiy jahon kolleksiyalariiga ega genlar banklari tarmog'ini tashkil etdi. 100 ta mamlakatdan 500 mingdan ziyod tur aniqlanib, noyob genlari saqlab qo'yildi.

*Bio xilma-xillik tushunchasi 1992 yildagi BMT ni Rio de-Janeyro (Brazilya)da o'tqazilgan xalqaro konferensiyada biologik xilma-xillikni saqlash konvensiyasi ko'p jahon davlatlari rahbarlarining imzo chekishidan so'ng ishlatila*

5-yil turlarning yo'qolib ketish sharoitlarini qisqartirish bosh *boshlanidi*. 1992 maqsadi bo'lgan bioxilma-xillikning Jahonshumul strategiyasi ishlab chiqildi.

**5 YO'QOLIB KETISH XAVFI OSTIDAGI YOVVOYOI FAUNA VA FLORA TURLARI BILAN XALQARO SAVDO TO'G'RISIDAGI KONVENTSIYA**

**(CITES)NING I, II VA III ILOVALARIKA KIRUVCHI HAYVONOT TURLARINI OLIB KIRISH VA CHETGA OLIB CHIQISH UCHUN RUXSATNOMA.** 2014-YIL 20-OKTYABR.

**HTTPS://ECO.GOV.UZ/UZ/COUNCIL/VIEW?NUMER=314 6 BIOLOGIK RANG-BARANGLIK TO‘G‘RISIDA KONVENSIYA 1992-YIL 5-IYUN, RODE-JANEYRO HTTPS://LEX.UZ/DOCS/-2667238**

Bugungi kunga kelib, sayyoramiz quruqligining 1/7 qismidagi tirik tabiatni asrash uchun javobgarligini o‘z zimmasiga olgan “Bioxilma-xillik to‘g‘risidagi konvensiya” ga 180 mamlakat vakillari imzo chekdi. Bunda I-darajada Irsiy jihatdan xilma-xillikni o‘rganadi. II- darajada Taksonomik jihatdan xilma-xillikni o‘rganadi. III-darjada Ekologik jihatdan xilma-xillikni o‘rganadi.

Bugungi kunda biologik resurslarni olib kirish va chiqish sohasida quyidagi amaliy muammolar bo‘layotganini ko‘rsatish mumkin:

**Overfishing (ortiqcha baliq ovlash):** Suv resurslarini olib chiqarish sohasida suv maydonidagi o‘zgarishlar va o‘ziga xos xususiyatlardan kelib chiqqan holda foydalanish muammolari mavjud. Misol uchun, baliqlarni ovlash oqibatida baliq turlarini sonini kamayishi va ekosistemlarning zarar ko‘rshiga olib kelish mumkin.

**Habitat Destruction (yashash muhitini buzish):** Biologik resurslarni olib kirish va chiqish faoliyati yashash muhitlarini buzishga olib kelishi mumkin. Misol uchun, yashovchi hayvonlarning yashash muhitlarini buzish, tabiiy ekosistemlarning buzilishi va biologik diversitetning yo‘qolishini kiritish mumkin.

### **XALQARO HUQUQIY TARTIB VA HUJJATLAR**

Endi esa bevosita savol qismiga to‘xtaladigan bo‘lsak, biologik resusrlarni olib kirish va chiqishning xalqaro huquqiy tartibi nomlari yuqorida qayd etilgan xalqaro huquqiy hujjatlar orqaligina amalga oshiradi. Jumladan, 1992-yilda qabul qilingan Biologik xilma-xillik to‘g‘risida konvensiyada bilogik resurslarni olib kirish va olib chiqishning xalqaro tartibi belgilanganligini ko‘rshimiz mumkin. Bundan tashqari esa **1972-yil BMT ning Atrof-muhit bo‘yicha Stokgolm konferensiyasida qaysi turdagи bilogik resurslarni eksport qilish yoki qilmaslik masalasi o‘z yechimini topadi. Xususan, ushbu konferensiyada yo‘qolib ketishi xavfi ostida bo‘lgan bilogik resusrlarni import yoki eksport**

7 qilish

qat’iyan taqiqlanadi

**7 STOKGOLM+50.**

**2022-YIL**

**4-IYUN.**

**HTTPS://HYDROMET.UZ/UZ/NODE/1940**

1983-yildagi yovvoyi hayvonlarning ko‘chib yuruvchi turlarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi konvensiyada kontrabandachilar tomonidan yovvoyi hayvonlarni eksport va import qilganlik uchun xalqaro javobgarlik joriy qilindi.

Unga ko“ra, ko“chib yuruvchi yovvoyi hayvonlarni noqonuniy ravishda ovlash, ularga jismoniy azob berish va shu kabi holatlar xalqaro huquqiy javobgarlikka olib kelishi belgilangan. Bundan tashqari esa, konvensiyada ko“chib yuruvchi hayvonlarni faqatgina maxsus vakolatga ega bo“lgan organning roziligi orqaligina eksport yoki import qilinishiga yo“l qo“yilishi mustahkamlangan.

### **MILLIY QONUNCHILIK VA TAJRIBA**

Biologik xilma-xillik to“g“risidagi konvensiyaga O“zbekiston 1995-yilda qo“shilgan<sup>3</sup>. O“simlik va hayvonot dunyosi ob“ektlaridan samarali va oqilona foydalanish maqsadida Fanlar akademiyasining Bio xilma-xillikdan foydalanish bo“yicha Idoralararo komissiya tomonidan 1991-yildan boshlab hayvonot dunyosini tabiatdan olishning ruxsat etilgan kvatalari, 1993-yildan esa o“simlik xomashyosini tayyorlash bo“yicha kvatalari o“rnatildi. 1998-yil O“zbekiston Respublikasining Bioxilma-xillikni saqlash Milliy Strategiyasi va Harakatlar rejasi ishlab chiqildi. So“ngra bu reja O“zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 139-sonli qarori bilan ma“qullandi. Milliy strategiyaning asosiy maqsadi mamlakat bioxilma-xillik resurslarini boshqarishning yagona bosh yo“nalishi va rejalashtirish tuzilmasini shakllantirishni ta“minlashdan iborat<sup>4</sup>.

**Shu o'rinda ta`kidlash lozimki,** O'zbekiston Respublikasi hukumati va Qozog'iston Respublikasi hukumati o'rtasidagi Kelishuvga bioxilma- xillikni saqlashni milliy harakat rejalar qabul qilindi Bular: Orol dengizining qurigan tubida o'rmon-meliorativ tadbirlarini amalga oshirish orqali hududdagi ekologik holatni sog'lomlashtirish, sayg'oqlarni muhofaza qilish, ularning bosh sonini ko'paytirish, Ustyurt tekisligida sayg'oqlar populyatsiyasining hozirgi holatini baholash va ularni saqlash choratadbirlarini ishlab chiqish, *Ustyurt tekisligida «Saygachiy»* majmua buyurtma qo'riqxonasini tashkil etish rejalashtirilgan. Shuningdek, *«UgamChotqol» davlat milliy tabiat bog'i tarkibidagi yadro sifatida Pskom qo'riqxonasini, «Hisor» davlat qo'riqxonasi, «Jayron» ekomarkazini* rivojlantirish, tarixiy va tabiiy madaniyat obidalarini termitlar va boshqa ksilofaglar zararidan saqlab qolishning ekologik xavfsiz uslublarini ishlab chiqish va joriy etish, geologik tabiat obidalarining xatlovini o'tkazish, ularni saqlab qolish va ulardan foydalanish bo'yicha rejalar mavjud. Ko“rib turganimizdek, O“zbekistonda ham biologik xilma-xillikni saqlash bo“yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

O“zbekistonda bilogik resurslarni eksport va import qiluvchi organlar mavjud hisoblanadi. Xususan, biz bunday organlarni shartli ravishda 2 ga ajratishimiz mumkin.

1. Umumiyl vakolatga ega bo'lgan organ

2. Maxsus vakolatga ega bo'lgan organ.

<sup>3</sup> BIOLOGIK RANG-BARANGLIK TO'G'RISIDA KONVENTSIYA 1992-YIL 5-IYUN, RIO-DE-JANEYRO

[HTTPS://LEX.UZ/DOCS/-2667238](https://LEX.UZ/DOCS/-2667238)

<sup>4</sup> [HTTPS://LEX.UZ/DOCS/-2013801](https://LEX.UZ/DOCS/-2013801)

Misol uchun, umumiy vakolatga ega boʻlgan organga tuman, shahar, viloyat hokimliklarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Maxsus vakolatga ega boʻlgan organga esa, asosiy funksiyasi bilogik resurslar bilan bogʻliq boʻlmagan organni aytishimiz mumkin. Misol uchun, Davlat bojxona qoʻmitasi. Bundan tashqari esa, Oʻzbekistonda biologik resurslar eksporti va importi xalqaro hujjatlar hamda milliy qonunlar orqali tartibga solinadi.

Yovvoyi oʻsimliklarni, ularning qismlarini olib kirish va chetga olib chiqish ketish uchun ruxsatnomalar **Oʻzbekiston Respublikasi Ekologoyiga va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qoʼmitasi** tomonidan beriladi<sup>5</sup>. Oʻsimlik dunyosi obyektlarini Oʻzbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqqanlik uchun toʻlovlar miqdori shu jadvalda keltirib oʻtilgan:

<b>Oʼsimlik dunyosi obyektlarining turlari</b>	<b>Oʼlchov birligi</b>	<b>Toʼlovlar miqdori</b>
Qizil kitobga kiritilgan oʼsimliklar, shuningdek mazkur oʼsimliklar turlaridan botanika kolleksiyalari	1 dona	mazkur tur oʼsimligini yigʼish qiymatining 5 %
Qizil kitobga kiritilmagan, yovvoyi holda oʼsuvchi oʼsimliklar xomashyosi va ularning qismlari (yalangʼoch qizilmiya, koʼhitan va sassiq kovrak yelimi bundan mustasno )	1 kg	mazkur tur oʼsimligini tayyorlashga ruxsatnomasi qiymatining 10%
Xom ashyo holdagi yalangʼoch qizilmiya (TIF TN kodi 1211 90 860 8), Oʻzbekiston Respublikasining yuridik hamda jismoniy shaxslari uchun	1 tn 1 tn	Toʼlov kunidagi Oʻzbekiston Respublikasining Markaziy banki kursi boʼyicha 225 AQSh dollari 225 AQSh dollari

<sup>5</sup> BIOLOGIK RESURSLARDAN FOYDALANISHNI TARTIBGA SOLISH VA TABIATDAN FOYDALANISH SOHASIDA RUXSAT BERISH TARTIB-TAOMILLARIDAN OʼTISH TARTIBI TOʼGʼRISIDA. 2014-YIL 27-OKTABR. [HTTPS://LEX.UZ/UZ/DOCS-2485765#-2487246](https://LEX.UZ/UZ/DOCS-2485765#-2487246)

xorijiy fuqarolar va yuridik shaxslar uchun			
Kovrakning ko„hitan va sassiq turlari yelimining xomashyo holdagisi, O„zbekiston Respublikasining yuridik hamda jismoniy shaxslari uchun	1 tn 1 tn	To„lov kunitagi O„zbekiston Respublikasining Markaziy banki kursi bo„yicha 300 AQSh dollari 300 AQSh dollarri	
xorijiy fuqarolar va yuridik shaxslar uchun			
Qizil kitobga kiritilmagan o„simliklarning botanika kolleksiyasi (ilmiy, madaniy-ma“rifiy, ta“limtarbiyaviy yoki estetik qiymatga ega)	1 ekzemplyar	mazkur tur o„simligini tayyorlash qiymatining 0,001 % miqdorida	

### XULOSA

Hozirgi kunda ko“plab o“simliklar va hayvonot dunyosi yo“qolib ketish arafasida. Bunga asosiy sabab esa, tabiatga va hayvonlarga nisbatan bo“lgan e“tiborning kamligida hisoblanadi. Yana bir sabab esa, xalqaro huquqiy hujjatlarning ijrosi yaxshi ta“monlanmasligida hisoblanadi. Shu boisdan, ko“plab hayvonlar va o“simliklar dunyosiga nisbatan shafqatsiz munosabatlar ko“payib ketgan. Buning oldini olish uchun esa, davlatlar va xalqaro tashkilotlar asosiy e“tiborni tabiatni muhofaza qilishga qaratishi kerak. Shuningdek, biologik resurslarni noqonuniy ravishda import va eksport qilayotgan shaxslarni qattiq nazoratga olib, jinoyat uchun javobgarlik tizimini yana kuchaytirishi kerak. O“zbekiston hukumati esa, joylardagi noqonuniy ovchilik faoliyati bilan shug“ullanayotgan shaxslarni qattiq nazoratga olishi zarur. Shuningdek, biologik resurslarni saqlab qolish va ularning yanada rivojlanishini ta“minlashga xizmat qiladigan dasturlar ishlab chiqishi, joylarda tar“gibot va tashviqot

ishlarini yana kuchaytirishi, tabiatni asrashga hissa qo“shganlarni rag“batlantirishning alohida tizimini ishlab chiqishi zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. **Bio xilma-xillikning biologik asosi darslik** - M. T. Do“stova. B.X.Xo`janiyozova. Buxoro 2020.
2. O.,zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 11.06.2019 yildagi 3. 484-son
4. Biologik xilma-xillik haqidagi Konvensianing bioxavfsizlik bo,,yicha Kartaxena protokoli

### **INTERNET SAYTLARI**

1. [WWW.LEX.UZ](http://WWW.LEX.UZ)
2. [HTTPS://UNIWORK.BUXDU.UZ/](https://UNIWORK.BUXDU.UZ/)